

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY – IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

3 - KURS

REFERAT

MAVZU: MEHNAT TASHKILOTINING STRUKTURASI

Bajardi: Abduqaxorova S.

Tekshirdi: ass.Tagieva G.

Samarqand – 2016 yil.

Mavzu: ISHSIZLIK TUSHUNCHASI VA ISHSIZLIKNING ASOSIY TURLARI

Reja:

- 1. Ishsizlar bilan bog'liq muammolar**
- 2. Ishsizlik sabablari.**
- 3. Ishsizlikning davomiyligi.**

Ishsizlik va u bilan bog'liq muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o'sishidan orqada qolmasligi kerak.

Ma'lumki, O'zbekiston dunyo hamjamiyati davlatlari o'rtasida aholisining jadal o'sib borayotganligi bilan ajralib to'radi. Respublikamiz aholisi soni har yili o'rtacha 550—600 ming kishiga, mehnatga layoqatli aholi soni esa 250—300 ming kishiga ko'pay-mokda. Bunday vaziyat o'z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirish, buning uchun esa ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasvda uzluksiz ish olib borishni taqozo etadi. Aks xolda, aholining turmush darajasining pasayib borishi, mamlakatda ishsizlar sonining ortib borishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda, ishchi kuchining ish joyi bilan ta'minlanmaganligi va natijada, uning biron-bir qonuniy daromad manbaiga ega bo'lmasligining muayyan (aniq) holati tushuniladi. Odatda,

jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkil oti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyati talablariga ko'ra ishlab chiqishadi.

Xalqaro tashkilotlarning bergan ta'rifiga binoan «ishsiz shaxs-lar» deganda — ishga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor yea ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi. Mana shu asosiy shartlarga rioya qilgan hodsa, turli mamlakatlarda fuqaroni ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun qo'shimcha shartlar talab qilinadi.

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida, so'igga bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan, so'nggi to'rt hafta davomida ishga joylashishga (bevosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash dav-lat xizmatiga murojaat etish orqali) harakat qilgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar, ishsiz shaxs deb e'tirof etiladilar.

Yaponiyada ishsiz shaxs deb, so'nggi bir hafta davomida bir soat ham ishlamagan, Buyuk Britaniyada esa, so'nggi bir hafta mobaynida ishlamagan, shudavr mobaynida ish kidirgan yeki kasalligi tufayli ish kidirish imkoniyatiga ega bo'lmagan fuqarolar tushuniladi. Ayrim mamlakatlarning qonun hujjatlariga binoan ishsiz deb, ishdan bo'shatilgan va mehnat stajiga ega bo'lganlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o'n olti yoshdan boshlab to' pensiya bilan ta'minlynish huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish kidiruvchi shaxs sifatada mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobnliyatli shaxslar e'tirof etiladi.

Ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun quyidagi to'rt shart mavjud bo'lishi lozim.

Birinchy shart — fuqaro mehnatga qobiliyatli bo'lishi va amaldagi qonun hujjatlariga binoan pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmasligi kyorak. Huquqiy jihatdan mehnat qilish qobiliyati-ning quyi darajasi, Mehnat kodeksinin! 77-moddasiga muvofiq 16 yosh deb belgilangan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Mehnat kodeksining ushbu moddasiga muvofiq tegishli shartlarga rioya etilgan holda 15 yoki 14 yoshga to'lgan yoshlarni ham ishga kdbul qilishga yo'l qo'yilsa-da, ular ishga layokdtli shaxs deb e'tirof etilishlari mumkin emas.

Ikkinchi shart — fuqaro ishga va ish haqiga (mehnat daromadi-ga) ega bo'lmasligi l ozim.

Agar, fuqaro asosiy ishini yo'qotgan (masalan, shtatlar kiska-rishi munosabati bilan bo'shatilgan), lekin o'rindoshlik asosida boshqa korxonada ishlayotgan bo'lsa, bunda u ish bilan band bo'lgan deb hisoblanadi.

Nafaqalar, alimentlar, qimmatli qogozlar bo'yicha olingan di-videndlar, banklarga qo'yilgan mablaglarga hisoblangan foizlar ish haqiga (mehnat daromadi) kirmaydi. Xuddi shunday pensiya va stipendiyalar ham ish haqi (mehnat daromadi) tarkibiga kirmay-di, lekin pensiya oluvchi fuqarolar ijtimoiy jihatdan ximoya-langankliklari, ishlab chiqarishdan ajralgan holda stipendiya olib o'qiyotganlar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanishlari sababli, bunday fuqarolar ishsiz shaxs deb e'tirof etilmaydilar.

Uchinchi shart — fuqaro ishlashga tayyor bo'lishi lozim. Fuqaroning ishlashga tayyor ekanligini, uning mahalliy mehnat organiga ish qidirib rasmiy murojaat qilishi, belgilangan muddatlarda mehnat organida qaytadan ro'yxatdan o'tib turishi va mehnat organlari tomonidan taklif qilingan maqbul ishni qabul qilish holatlari tasdikdaydi.

Homilador ayollar, agarda ularning homiladorlik davri yigirma sakkiz haftadan oshmagan bo'lsa, ular mehnatga qobiliyatli deb hisoblanadilar va homiladorlikning bu davrida ular ishsiz shaxs deb e'tirof etilishlari kerak.

To'rtinchi shart — fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim qilgan holda mahalliy mehnat organida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim.

Ishsizlikning umumiqqisodiy xarakteri mehnat bozorining o'zi, mehnatga talab va uning taklifi o'rtasidagi mutanosiblik ishsizlikni emas, ish bilan bandlikni shakllantirishidan ham kelib chiqadi. Ishsizlik, bir tomondan, go'yo ish bilan bandlikning «teskarisi» hisoblanadi, ikkinchi tomondan, ish bilan bandlikni shakllantiruvchi omillardan farq qiluvchi omillar ta'sirini his qiladi.

Shunday bo'lsa-da, ishsizlik doimo ish bilan bandlik bilan birgalikda ko'rib chiqiladi: ish bilan bandlikning ko'payishi, qoidaga ko'ra ishsizlikni kamaytiradi, bu esa ishsizlikni, o'z navbatida ish bilan bandlikni ko'paytiradi. Ta'rifga ko'ra ishsizlik — bu ishlashni istaydigan mehnatta layoqatli aholining ish bilan band bo'lmagan mikdoridir. Makroiqtisodiy jihatdan ishsizlik — bu doimo jamiyat mehnat salohiyatidan, ishchi kuchi majmuidan ishlab chiqarish omili sifatida to'la foydalanmaganlikdir. Bu ma'noda ishsizlik ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlariga yoki foydalanilmayotgan yersuvga teng, ammo ishlab chiqarishning boshqa omillari ortiqchaligidan farq qilib, «ortiqcha» ishchi kuchi—bozor iqtisodiyotidagi doimiy voqyelikdir.

Chet el turli maktab va yo'nalishlar, iqtisodchilari ishsizlik sabablarini aniklashga anchadan beri urinib kelishadi. Keyingi yillarda bizda ham bu masalaga katta e'tibor berilmokda. G'arbda ishsizlik muammosini o'rganish cho'kkisi ishsizlikka bozorning muvozanat mexanizmi tomonidan avtomatik bartaraf etiladigan muvakkat hodisa sifatidagi klassik nuqtai nazarni inkor etgan Buyuk Turg'unlik (depressiya) davriga to'g'ri keladi.

Chet ellik iqtisodchilar, hatto klassiklar va neoklassiklar ham ishsizlikning mavjudligini hyech qachon umuman inkor etmaganlar. Bundan tashqari, ular bozor iqtisodiyotining rivojlanishi davriy xarakterga ega

bo'lganligi uchun ham uni bozor iqtisodiyoti uchun hayotiy muhim deb hisoblaganlar: yuksalish davrida firmalar mehnat bozoridan o'zlariga zarur bo'lgan, tanazzul davrida chiqarib tashlangan ishchi kuchini tez topadilar. Ammo ilmiy texnika taraqqiyotiga asoslangan ishlab chiqarishning hozirgi darajasi «mehnatning zahiradagi bunday armiyasini» iqtisodiyot uchun ham samaraliligiga aylantiradi — firmalarga oddiy ishchi kuchi emas, balki belgilangan sifatdag, belgilangan malakadagi mehnat kerak.

Shuning uchun, ishsizlikning bozor iqtisodiyoti uchun «tabiiy», ya'ni normal va hatto zarur degan tushunchasi bugungi kunda turlicha talqin qilinadi. Iqtisodchilardan birlari ishsizlikning tabiiy darajasini ish haqi va inflyasiya barqaror bo'ladigan daraja sifatida ta'riflaydilar: ishsizlikning bu darajadan pasayishi inflyasiyaning o'sishiga olib keladi. Aslida tabiiy ishsizlikning bunday ta'rifi inflyasiyani ish haqi va ish bilan bandlik darajasiga bog'liq deb hisoblaydigan neoklassiklarga tegishlidir. Boshqa tadqiqotchilar ishsizlikning tabiiy darajasi sifatida ishsizlik ixtiyoriy xarakterda bo'ladigan — ishsizlik darajasi «teng vaznli» (muvozanatli) bo'lgan davrdan e'tirof etadilar. Uchinchilari esa ishsizlikning tabiiy darajasini bo'sh joylar miqdori ishsizlar soniga teng bo'ladigan daraja sifatida ta'riflaydilar. To'rtinchilari — ishsizlikning o'zgarmas darajasi va uning normal davomiyligi bo'yicha, aniklaydilar. Xalqaro Mehnat Tashkiloti standarti bo'yicha tabiiy ishsizlik darajasi 1,5—2,5 %ni tashkil etadi.

Amerikalik iqtisodchi Artur Ouken notabiiy yoki davriy ishsizlikning salbiy ta'sirga ega ekanligini matematik holda isbotlab berdi. A. Ouken qonuniga ko'ra ishsizlikning tabiiy darajasi 1 %ga oshganda yalpi milliy mahsulot 2,5 %ga kamayadi yoki 2,5 % yalpi milliy mahsulot yo'qoladi. Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 ga teng. Shu nisbatga asoslanib, yo'qotilgan yalpi milliy mahsulotning absolyut qiymatini aniklash mumkin.

Ishsizlikning ko'payishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini pasaytiradi. Shuning uchun ham potensial hajmdagi yalpi milliy mahsulot (yalpi milliy mahsuloti) haqiqatdagi yalpi milliy mahsulot (yalpi milliy mahsulot)dan katta bo'ladi.

Shunday qilib, ishsizlikning tabiiy darajasi — bu «normal» davrdagi me'yoriy inflyasiya va barqaror o'sish sur'atlari bilan ifodalangan darajadir. Shuning uchun, ishsizlikning tabiiy darajasining ta'rifi — anchagina murakkab ish, chunki bu ko'rsatkichni hisoblab chiqish uchun «normal ishlovchi iqtisodiyot» modelini yaratish kerak bo'ladi.

Fikrimizcha, hozirgi kunda ran tabiiy ishsizlik to'g'risida emas, balki uning ijgimoiy maqbul darajasi, ya'ni kadrlar qo'nimsizligi va ish izlash davomiyligini ham, ishchi kuchi demografik tarkibi va mexnat bozoridagi tanglik darajasini (ishsizlikning bo'sh joylar mikdoriga qiyos) va ijtimoiy tanglikni ham hisobga oladigan darajasi to'g'risida borishi kerak. Ishsizlikning tabiiy darajasiga qanday ta'rif berilmasin, iqtisodiyot uchun haqiqiy muammo ommaviy «muvozanatlanmagan» yoki «majburiy» — davriy ishsizlikdir.

«Ishsizlik» tushunchasiga aniklik kiritib, shuni ta'kidlash kerakki, bu tushuncha iqtisodiy jihatdan faol aholi toifasiga kiradi, ya'ni ishsizlar — bular shunday kishilarki, ular mehnat bozorida o'z xizmatlarini faollik bilan taklif qiladilar, ish qidiradilar, bu narsa ish bilan bandlikning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda davlat tomonidan hisobga olinishi darkor. Ba'zan «ishsizlar» tushunchasining ish bilan band bo'lmagan mehnatga qobiliyatli aholi sifatida keng ma'noda talqin qilinishi maqbul emas, chunki u faol ish qidirayotganlarni ham, ish qidirmayotganlarni ham, shuningdek, haq to'lanadigan ish o'rnini egallash uchun da'vogarlik qilayotgan, lekin unga o'zining kasb-malaka jihatidan yaroqli, sog'lig'i, ichki uyushqoqligi bilan moye kelishiga yordam bermayotgan shaxslar ham kiritilardi.

XMT standartlariga ko'ra, ishsiz aholiga muayyan yoshga yetgan, hisobot davri mobaynida ishsiz bo'lib, darhol ishga tushishga tayyor bo'lib turgan va faollik bilan ish qidirayotgan kishilar kiritiladi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ishsiz Maqomiga ega bo'lmoqchi bo'lgan kishi quyidagi mezonlarga moye kelishi lozim:

1. Ular ish bilan bandlik xizmati idoralarida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatga olinishlari darkor. O'zbekiston sharoitida ko'plab kishilar haqiqatan ham ana shunday ishezlik maqomidan foydalanmaydilar.

2. Ishsiz deb hisoblanish uchun odam faollik bilan ish kddirishi (odatda, ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qilishdan oldin bir-to'rt hafta ilgari) kerak bo'ladi. Bizning real voqyeligimizda — buni ish bilan bandlik xizmati mintaqa markazlarining xodimlari qayd qilganlar — shunday mintaqalar ham borki, ishezlik bo'yicha beriladigan nafaqa ishlab turgan korxonalardagi o'rtacha ish haqidan yuqoridir, bu ayniqsa, ishlamay turgan korxonalar uchun xos bo'lib, vijdonsiz ishezlar faollik bilan ish qidirmaydilar, faqat uni izlayotgan hisoblanadilar, ular ko'pincha qayd qilinmagan daromadlarga ham egadirlar.

3. Ishezlar maqomi va ishezlik bo'yicha nafaqa olish hukuqi faqat ilgari ishlagan kishilarga beriladi. Odatda, da'vogar avval-gi 12 oydan qonunda qayd qilingan uch oy mobaynida ishga ega bo'lishi lozim. Bu shart ijtimoiy jihatdan o'zini to'liqoklagan bo'lishi mumkin emas, chunki kimki to'rt oy mobaynida noto'liq ish kuni ishlagan bo'lsa, ishezlik bo'yicha nafaqa olish hukuqiga ega bo'ladi, kimki ikki oy mobaynida to'liq ish kuni ishlagan bo'lsa, u nafaqa olish huquqiga ega bo'lmaydi. Ko'pgina Rarb mamlakatla-rida bu shart ishezlik bo'yicha nafaqa oluvchilar sonini kamaytirishga kuchli ta'sir qildi.

4. Ishezlik ixtiyoriy ravivda boshlanmasligi lozim. Bu hol odamlarga o'zini mas'uliyatsiz tutishga, alohida sabablarsiz bo'shashga yo'l qo'ymaydi,

deb xisoblanadi. Birok, ishdan o'z ixtiyori bilan ketish va ishdan bo'shash o'rtasvdagi chegara hamisha ham aniq emas, chunki odamlarning bir qismi korxonadan majburan ketishi qayd etilishini istamaydi.

5. Ishsiz odam o'zi uchun ish bilan bandlik xizmati «moye keladi» deb hisoblagan ishga joylashish taklifini rad qilmasligi lozim. «Moye keluvchi ish» mezonlarining ob'sktivligi haqida masala vujudga keladi.

6. Ishsizlar boshka daromad manbalariga ega bo'lmasligi kerak.

7. Ishsiz odam muayyan oylar mobaynida ishsizlik bo'yicha na-faqa olib turadi, shundan keyin nafaqaning miqsori kamaytiri-ladi yeki uni to'lash mutlaqo to'xtatiladi. Ishsiz¹lik bo'yicha nafa-qadan maxrum bo'lib qolish istiqboli ishsizni o'z kuch-gayratini ish qidirishga qaratishga majbur qiladi. Lekin, bu xrl ko'pincha uni o'zining bilimi va tayyorgarlik darajasiga muvofik, kelmay-digan tasodifiy ishga rozi bo'lishiga olib keladi, iirovard nati-jada, bu joydan bo'shashiga to'g'ri keladi. Bu esa xodimning bundan keyingi qayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ishsizlik darajasi — mehnat bozorining hozirgi paytdagi ahvo-li qaqida va unda muayyan vaqt mobaynida ro'y bergan o'zgarishlar to'grisida tasavvur beradigan asosiy ko'rsatkichdir. Davrning boshi (yoki oxiri) dagn ahvolga ko'rategishli sanada ishsizlik maqomiga ega bo'lgan kishilar sonining (I_t) ana shu sanadagi iqtisodiy faol aholi soniga Fa_p nisbati sifatida aniklanadi.

Iqqasodiy faol aholiga yollanish asosida haqolib ishlaydigan yoki o'z korxonasida, shu jumladan, shaxsiy yordamchi xo'jaligida

ishlaydigan yoki shunday korxonaga ega bo'lgan, biroq unda ishlaymaydigan kishilar, shuningdek, ishsiz bo'lib, yollanish yoki yollan-masdan ishlashni xohlaydigan kishilar kiradi.

Agar joriy statistikada iqtisodiy, faol aholining soni ha-qidagi ma'lumotlar bo'lmasa, u xalq xo'jaligida yoki mintaqada ish bilan band

bo'lganlarning ro'yxatdagi soni mikdori sifatida va: a) ish bilan bandlik bo'yicha mahalliy markazda yoki mintaqa ish bilan bandlik markazida ro'yxatga olingan ish qidirayotgan ish bilan band emaslar soni: b) XMT usuli bo'yicha xisoblab chiqilgan ishsizlar soni sifatida taxminan hisoblab chiqarilishi mumkin.

Ishsizlik darajasi ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Hozirgi zamon fani tabiiy ishsizlik darajasi degan tushunchadan foydalanadi. Turli mualliflar ishsizlikning tabiiy darajasini turlicha hisoblaydilar. G'arb mamlakatlarida ishsizlikning tabiiy darajasi 4—6 % doirasida deb yuritiladi. Bizning iqtisodchilarimiz bu ko'rsatkichni 3—5 % deb hisoblaydilar.

Turli mamlakatlarda har bir muayyan davrda ishsizlik darajasi bir-biridan jiddiy farq qiladi, bu esa har bir mamlakat uchun qaror topgan «tabiiy» ishsizlik darajasiga, mamlakatdagi iqtisodiy sikl fazasiga. shuningdek, davlat o'tkazadigan ish bi-lan bandlik siyosatiga bogliq bo'ladi. Ishsizlikning tarqalishn va ishsnzlar harakati. Ishsizlikning tarqalishi muayyan vaqt mobaynidagi ishsizlik maqomiga ega bo'lgan kishilarning umumiy sonini bildiradi. Mazkur davrning oxiriga kelib, uning ishsizlik maqomini saqlab qolgan-qolmaganligi bu yerda rol o'ynamaydi. U mazkur davrning boshida hisobda turgan va ishsiz deb topilganlarning umumiy mikdori sifatida anikdanadi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan statistika hisobi umuman ishsizlarning tarqalganligini, shuningdek, ayrim ijtimoiy demografik guruhlar bo'yicha: ayollar, erkaklar, yoshlar, qishlokdar hamda shaharlarda yashovchi shaxslar va hokazolar sifatida anikdash imkonini beradi.

Ishsizlar sonining harakati muayyan vaqt mobaynidagi quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi: mazkur davrning boshida qancha kishi ishsizlik maqomiga ega edi, yangidan qancha kishi ro'yxatga olingan, qancha kishi hisobdan chiqarilgan (shu jumladan, ishga joylashgan, muddatidan oldin pensiya olishga rasmiylashtirilgan va boshqa sabablar bilan), davr oxirida qancha ishsiz hisobda qolgan? Bunday harakat ham umuman, ham ayrim ijtimoiy-demografik guruhlar bo'yicha ham hisoblab chiqiladi. Shu yo'l bilan ishsizlar harakati

qanchalik intensiv bo'lganligi va konkret aholi guruxdari bo'iicha bu harakatdagi farqlar qanchalik jiddiy bo'lganligiga baxo beriladi.

Ishsizlikning davomiyligi — ishsizlik maqomiga ega bo'lgan shaxslarning shu davr oxiriga kelib, ish qidirish muddati o'rtacha qancha davom etganligini ko'rsatuvchi hajmdir. Shuningdek, bu davrda ulardan qanchasi ishga joylashganligi ham hisobga olinadi. Mazkur hajm ikki ko'rsatkich bilan belgilanadi. Birinchi ko'rsatkich, ishsiz sifatida hisobga olinganlar o'rta hisobda qancha oy mobaynida ishsiz bo'lganliklaridan dalolat beradi. Ikkinchi ko'rsatkich, mazkur davrda ishsiz bo'lganlardan qanchasi o'rta hisobda necha oy ishsiz o'tirganligi va ish topganligini aks ettiradi.

Ishsizlikni taxdil qilishda uning davomiylik ko'rsatkichi alohida ahamiyatga egadir. Ishsizlikning o'rtacha davomiyligi va uzoq vaqt ishlamayotganlar ishsizlar orasidagi hissasi haqidagi ma'lumotlar nisbiy ishsizlik haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ayrim hollarda ishsizlarning asosiy qismi tezda (1—4 oy ichida) yangi ish joyi topishi mumkin, ba'zilar esa yarim yil va undan ham ko'proq muddat ish topolmay yuradilar.

Ishsizlik bo'yicha nafaqalar. Ishsiz deb e'tirof qilingan fuqarolarning toifasiga qarab, ularga beriladigan ishsizlik bo'yicha nafaqalar tabaqalashtiriladi:

— korxonalardan har qanday asos bilan ishdan bo'shatilayotganlar (shu jumladan, III guruh nogironlari va harbiy kuchlardan, davlat xavfsizligi va ichki organlardan bo'shatilganlar) ishsizlik boshlanishidan oldin 12 oy mobaynida kamida 12 kalendar hafta mobaynida to'liq ish kuni (haftasi) yoki to'liq bo'lmagan ish kuni (haftasi) sharoitida ishlagan bo'lsa (bu keyingisi 12 kalendar haftali to'liq ish kuniga aylantirib hisoblanadi), ishsizlik bo'yicha nafaqa dastlabki uch oy mobaynida keyingi ish joyida ishlangan oxirgi ikki

oylik o'rtacha oylik ish haqining 75 % mikdorida; keyingi to'rt oy mobaynida — 60 % mikdorida; keyinchalik 45 % mikdorida to'lanadi, lekin barcha hollarda ishsizlik bo'yicha nafaqa qonunda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'lmagan mikdorda va respublikada qaror topgan o'rtacha ish haqidan yuqori bo'lmagan mikdorda to'lanadi;

— korxonalardan har qanday asoslar bo'yicha bo'shatilgan, lekin 12 oy mobaynida 12 hafta haq to'lanadigan ishga ega bo'lmagan kishilarga ishsizlik bo'yicha nafaqa respublikada belgilangan eng kam mikdordagi ish haqi hisobidan to'lanadi;

— uzoq muddat davomvda (bir yildan ortiq) birinchi marta ish qidirayotgan, shuningdek, mehnat faoliyatini tiklashga intilayotgan kishilarga eng kam mikdordagi ish haqi hisobidan ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lanadi.

Qishloq aholisini ishsizlar toifasiga kiritish mezonlarini anikdashtirish zarur. Yer uchastkasi muayyan Mikdorda va shaxsiy yordamchi xo'jaligi tovar mahsulot berish darajasida bo'lgan takdirda, u mustaqil shug'ullanuvchi sifatida qaralishi mumkin. Yer uchastkasi va fermer xo'jaligini tashkil etish uchun kredit berish taklif etiladigan bo'lsa, qishloq aholisiga nisbatan «muvofig ish joyini» taklif qilish sifatida qaralishi mumkin, bunda qishloq axlining uyida xo'jalik imoratlari va eng kam mikdorda qishloq xo'jaligi asboblari mavjud bo'lishi nazarda tutiladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, ayrim shaxslar qonunlarimizning mukammal emasligidan foydalanib, ishsizlik bo'yicha beriladigan nafaqani qo'shimcha daromad manbai turlaridan biri deb qaraydilar, o'zlari esa mustaqil ravishda ish bilan shugullanadilar yoki shartnoma asosida ishlayotgan bo'ladilar.

1. ISHSIZLIK SABABLARI

Iqtisodchilar ommaviy ishsizlikning haqiqiy sabablari qandayligi to'grisida hanuzgacha bahslashadilar. Jumladan, bu masala klassik va

keynsian maktablari o'rtasidagi kelishmovchilik mavzularidan biridir. Bu bahs xususida qisqacha to'xtalamiz.

Klassik (va neoklassik) nazariyaga ko'ra, ommaviy ishsizlikning asosiy sababi pasayish tomoniga bo'lgan yuqori va moslashuvchan bo'lmagan ish haqi hisoblanadi. Ish haqi o'z muvozanat darajasidan oshib, kasaba uyushmasining faolligi hamda davlatning aralashuvi tufayli usha darajada «o'rnashib qolganda» mehnat talabi bilan taklifi o'rtasida uzilish paydo bo'ladi, mana shu narsa ishsizlikni keltirib chiqaradi. Agar bozordan tashqari kuchlar (kasaba uyushmalari va davlat) firmalarni ish bilan bandlikni oldingi darajasida saqashga majbur qilsa, buning oqibati mamlakatdagi xronik inflyasiya bo'lishi mumkin, Bundan — neoklassiklarning asosiy «resepty» — ish haqi darajasini ushlab turish va hatto kamaytirish kelib chiqadi.

Ma'lumki, J.Keyns ishsizlikning davosi sifatida ishhaqini pasaytirish g'oyasini qat'iy inkor etib, o'ziga investisiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tashqari iste'mol xarajatlarini — bunda ham so'ngtisi — umumiy talabning asosiy qismi, ham qamrab oladigan umumiy talabdan kelib chikadi. Keynsning asosiy g'oyasi shundaki, umumiy talabning namoyishi firmalarning ishchanlik faoliyatini, demak, ishchi kuchiga talabni ham pasaytiradi. Agar bunda iste'mol xarajatlarining asosi sifatidagi ish haqi kamayadigan bo'lsa, umumiy talab yanada ko'proqqa kamayadi va boshqalar.

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sish tarixi aynan Keyns qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga achingandan boshlab, ishsizlik darajasi ma'lum darajada muntazam ortib bordi, shunga ko'ra ish bilan bandlik ko'rsatkichlari esa pasayib bordi. Ishga joylashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasini tushirishga qaratilgan har qanday

iqtisodiy siyosat yo ishdan bo'shash darajasini pasaytirishga yoki ishga joylashtirish darajasini oshirishga ko'maklashishi kerak. Ishsizlik bu darajadan ko'tarilib ketsa, har qanday mamlakat uchun mudhish hollarni yuzaga keltiradi.

Ishsizlik darajasi ikki asosiy ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi. Ulardan birinchisi — yuqorida aytib o'tilganidek, faol aholi sonida rasmiy ro'yxatga olingan to'liq ishsizlar salmog'i sifatida hisoblanadigan ishsizlik darajasidir. Biroq, bu ko'rsatkich ish bilan bandlik sohasidagi vaziyat haqida to'liq tasavvur bermaydi. Uni haqqoniy anikdash uchun ish joyidan maxrum bo'lgan kishilar sonini va ular qancha vaqt davomida shunday holatda bo'lishlarini bilish kerak. Ishsizlar sonini bekor o'tkazgan vaqtlariga ko'paytirsak, soatlarda ifodalanuvchi haqiqiy ishsizlik darajasiga erishamiz.

Ishsizlik va ishsizlik darajasini aniklash uchun uni turkumlash maqsadga muvofikdir. Ishsizlikni bir necha xususiyatiga ko'ra turkumlash mumkin (kelib chiqish sababiga ko'ra, shaklan, mazmunan namoyon bo'lishiga ko'ra, davom etish muddatlari va egallagas makoniga ko'ra).

Ish bilan bandlikning keskin kamayishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat sektorining kamayishi) inflyasiya hamda xo'jalik yuritishni muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari)ning yetarlicha tez o'smaganligi tufayli ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvolning yomonlashuvi bilan qo'shilishidan yuzaga keldi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy talab hajmida salbiy aks etdi: davlat ta'siri qisqardi, investisiya faoliyati sustlashdi, iste'mol xarajatlari esa inflyasiya ta'sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli bir-muncha kamaydi. «Plyus» belgisi bilan qolgan umumiy talabning yagona komponenti — xom ashyo chikarishga an'anaviy asoslangan sof eksport bo'ldi.

Demak, O'zbekistonda ishsizlik o'sishining asosiy sababi, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyoti davlat sektoride ishdab chiqarish-ning qisqarnshi

bo'ldi. Iqtisodiy o'sish dinamikasi bilan ishsizlik o'rtasidagi aloqa uzviy bog'liq ko'rsatkichlardir.

Qoidaga ko'ra, g'arb iqtisodchilari iqtisodiy o'sish sur'atlarini aholini ish bilan bandligining o'sish sur'atlari bilan, tanazzulni esa ishsizlik darajasining o'sishi bilan bog'laydilar. Haqiqatan ham, industrial turdagi normal ishlayotgan bozor iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish doimo tarmoqlarning rivojlanishi va kengayishini, demak, ish bilan bandlikning ortishini anglatadi. Shunday bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday bog'liqlik ko'zga ochiq tashlanmaydi. Masalan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning tez o'sishi ish bilan bandlikning muvofiq kengayishini keltirib chiqarmadi. Iqtisodchilar bu hodisani sanoatdagi o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan urbanizasiya sur'atlari hamda qishlokdan shaharga ko'chib kelayotgan aholi malakasining pastligida deb izoxlaydilar. MDH mamlakatlaridagi voqyelik ishsizlikning iqtisodiy turg'unlik pasayishi sur'atlari bilan bevosita aloqasini tasdiklamaydi. Masalan, sanoat ishlab chiqarish hajmlari deyarli ikki marta qisqarganda, ish bilan band bo'lganlar soni 10,0 %dan ortiqroq kamayishi mumkin. Fikrimizcha, buning sababi quyidagicha bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. Bekmurodov. Sosiologiya. 2000 y.
2. Aliqoriyev N.S. Mehnat sosiologiyasi T. 1988 y.
3. Dyurkgeym. Ye. Metody sosiologii. M. 1998 g.
4. Giddens. Umumiy sosiologiya. T. 2002 y.